

O'tkirova Zahro Doniyor qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: B.Daminov, «Arab tili va adabiyoti al-Azhar»

kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili va o'zbek tilida aniqlovchining ifodalanishi haqida va shu bilan bir qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: aniqlovchi, aniqlovchi ergash gaplar.

COMPOUND SENTENCES WITH DETERMINER SUBORDINATE CLAUSE

Annotation: This article is about the expression of the determiner in Arabic and Uzbek, as well as conjunctions with a determiner subordinate clause will be informed about.

Key words: determiner, determiner subordinate clause.

ОПРЕДЕЛЯЮЩЕЕ НАРЕЧИЕ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ ПРИДАТОЧНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация: арабский и узбекский в этой статье о выражении определителя на языке, и таким образом предоставляется информация обсоставных предложений с определительным наречием.

Ключевые слова: определяющие, определяющие наречия.

KIRISH

Jahondagi har bir tilning o'z tarixi, taqdiri, jamiyat hayotida tutgan o'rni va mavqeい mavjud. Jahon tillari o'zining genetik jihat, tipologiyasi, ijtimioy mohiyati, o'tmishi, yozuv tarixi, unda so'zlashuvchilarning umumiy miqdori kabi belgilari bilan o'zaro farqlanadi. Ular ichida arab tili ham o'zining juda qadim tarixga ega ekanligi, serqirra va ilmiy manbalarga boyligi bilan ajralib turadi. Arab tili grammatikasi shu qadar mukammal mantiqqa asoslanganki, bu tilni tadqiq qilish mobaynida uning grammatikasidagi biror qoida o'z-o'zidan kelib qolmaganligi, har narsa bir ta'sir etuvchi omil yuzasidan mavjudligi va jamiki qoida, atama va lingvistik predmetlarning o'z daqiq o'rni borligini ko'rish mumkin. Arab tilining qonun-qoidalari tizimi – nahv ilmini yaratgan va kamolga yetkazgan olimlar orasida Mahmud Zamaxshariy muhim

o‘rin egallaydi. Har bir tilda gapni ifoda qiluvchi gap bo‘laklari mavjud. Xususan, arab tilida ham shunday bo‘laklar mavjud bo‘lib, ularni bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratiladi. Gapning bosh bo‘laklariga ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklariga aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol kiradi.

ASOSIY QISM

Arab tili grammatikasida aniqlovchi **الصفة** yoki **النعت** deb ataladi. U boshqa tillardagi kabi ism bilan ifodalangan biror gap bo‘lagining belgisi, xususiyatini yoki unga qarashli ekanligini bildirib keladi. Ammo arab tilida aniqlovchilarning o‘ziga xos morfologik xususiyatlari mavjud. O‘zbek tilida aniqlovchi o‘zi aniqlab kelayotgan ism ya’ni aniqlanmishdan oldin keladi. Arab tilida esa aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi. Masalan:

واسع شارع – keng ko‘cha

[1;76].

O‘zbek tili grammatikasida **aniqlovchi** hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kimga yoki nimaga qarashli ekanini bildirib *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? kimning? nimaning?* singari so’roqlarga javob bo‘luvchi gap bo‘lagidir.

Aniqlovchining ma’no turlari:

1. Sifatlovchi aniqlovchi
 2. Qaratqich aniqlovchi
 3. Izohlovchi
- [2;498].

Bosh gapning biror bo‘lagini bir butun soda gap shaklida aniqlab keluvchi aniqlovchiga *aniqlovchi ergash gap* deyiladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagagi qaysi gap bo‘lagini aniqlab kelsa, o’sha bo‘lakdan keyin keladi va **أي - qaysi?** so’rog’iga javob bo‘ladi.

Arab tilida aniqlovchi ergash gap bosh gapga agar gapdagagi aniqlanib kelayotgan so’z aniq holatda bo’lsa, nisbiy olmosh vositasida bog’lanadi. Ergashgan jumlada ega bo‘lib kelayotgan nisbiy olmosh bu bo‘lak bilan jins va sonda (ikkilik sonda bo’lsa kelishikda ham) moslashadi. Ko’pincha nisbiy olmoshga fe’liy jumla bog’lanib keladi. Misollar:

1. Bir soat oldin kelgan kishini taniysanmi?
ساعة؟ قبل جاء الذي الرجل تعرف أ
2. Bu o’sha sen hal qilishga ojiz bo‘lgan muammo bo‘ladi.
حلها عن عجزت التي القضية هي هذه
3. Menga yordam berishgan barcha o’rtoqlarimga minnatdorchiligidimni bildiraman.
المساعدة لي قدموا الذين زملائي لجميع شكري أقدم
4. Bular universitetimizni bitirib bo‘lgan o’sha qizlardir. [1;231].

O'zbek tilida aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar bosh gap tarkibidagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap aniqlovchi ergash gap deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llanuvchi **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fellar bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari **-ki** yuklamasi yordamida bog'langanda esa aniqlovchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Ba'zan bosh gapning aniqlovchisi vazifasidagi shunday, shunaqa ko'rsatish olmoshlari qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

Oldin bosh gap, keyin ergash gapga misol:**ayrim +ot....-ki**, _____

1.Ayrim muammolar borki, ularni butun jahon xalqlari birlashib hal qilishi kerak.

2.Ba'zi kamchiliklarimiz ham yo'q emaski, darslarni sababsiz qoldiramiz va qimmatli vaqtimizni bekorga sarflaymiz.

Oldin ergash gap, keyin bosh gapga misol: **kim.....-sa, uning** _____

1.Kim birovga yaxshilik qilsa, uning obroyi baland bo'ladi.

2.Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi. [2;552].

Arab tilida qo'shma gaplar ikkiga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng boglanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi. "Bog'langan qo'shma gaplar mazmun jihatidan nisbatan erkin gaplar yig'indisi bo'lib, biriktiruvchi (teng, zidlov, ajratuvchi) bog'lovchilar vositasida o'zaro bog'lanadi. Demak, bu gaplar o'zaro و، لكن، بل، ثم، ف، **لكن** kabibi bog'lovchilar yordamida birikadi.

Ergashgan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni to'ldirib, aniqlab yoki boshqa tomondan xarakterlab keladi. To'ldirilib yoki aniqlanib kelayotgan gap bosh gap, tobe gap esa ergash gap deyiladi. Ergash gap bosh gapni qaysi tomondan xarakterlab kelayotganligiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi. Arab tilida ergash gaplarning bir qancha turlari mavjud. N.Ibrohimov, M.Yusupovlarning "Arab tili grammatikasi" kitobida qo'shma gaplarning shu 15 turi keltiriladi. Ular:

1.Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap;

2.To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;

3.Ega ergash gapli qo'shma gap;

4.Kesim ergash gapli qo'shma gap;

5.Shart ergash gapli qo'shma gap;

6.To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap;

7.Payt ergash gapli qo'shma gap;

- 8.Holat ergash gapli qo'shma gap;
- 9.O'rin ergash gapli qo'shma gap;
- 10.Hol ergash gapli qo'shma gap;
- 11.Sabab ergash gapli qo'shma gap;
- 12.Maqсад ergash gapli qo'shma gap;
- 13.Natija ergash gapli qo'shma gap;
- 14.O'xshatish ergash gapli qo'shma gap;
- 15.Istisno ergash gapli qo'shma gap kabi turlari mavjud.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arab adabiy tilida qo'shma gaplarning bir qancha turlari bo'lib, siyosiy matnlarda ularning barchasi qo'llaniladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakning belgisini bildirsa, bevosita shu bo'lakdan keyin keladi. Belgisini bildirilib kelayotgan (so'z aniq holatda bo'lsa, u bilan aniqlovchi ergash gap o'rtasiga nisbiy olmoshi ishlatilinadi. Noaniq holatda bo'lsa, nisbiy olmosh ishlatilmaydi) Hozirgi o'zbek tilida bunday iboralar ko'pincha kengaytirilgan sifatdosh yordamida tarjima qilinadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov Mirqobil. O'quv qo'llanma.-Toshkent, Global Books, 2019. -360b.
2. Erkaboyeva Nargiza.O'zbek tilidan maruzalar to'plami. –Toshkent: Yosh kuch, 2021.-687b.
3. https://arabic.rt.com/middle_east/